




TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMUY-USLUBIY JURNALI

2021-YEAR
2-JANUARY



WWW.TALIMFIDOVILARI.UZ

Google Yandex

VIRTUAL
JOURNAL



«TA'LIM FIDOYILARI» ilmiy-uslubiy jurnali



«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI

«TA'LIM FIDOYILARI» ilmiy-uslubiy jurnali



«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI

«TA'LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

2-SON, 2-JILD YANVAR - 2021

2-QISM

Google @ mail Яндекс

WWW.TALIMFIDOYLARI.UZ

Issue 2. 2 January 2021

«TA'LIM FIDOYILARI» ilmiy-uslubiy jurnali

**UMUMTA'LIM FANLARI TARKIBIDA O'QUVCIII YOSHLARDA FAOL
FUQAROLIK POZITSIYASI
NORMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Babayeva Vasila Toshpulatovna

Bux.DU katta o'qituvchi

Babayeva Lola Tashpulatovna

Buxoro shahar 25-maktab

oily toifali huquq o'qituvchisi

Boboyev Xurshid Mansurovich

Buxoro shahar 1-maktab

II toifali tarix o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada dars jarayonida o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, huquqbazarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalash usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy davlat, Konsepsiya, huquqiy savodxonlik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, "Street law", "Kundalik huquq", volonter.

"Har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi, huquqiy qonunlar asosida idora etiladigan, adolatsizlikka yo'l qo'yilmaydigan, qonun ustuvor bo'lgan adolatli jamiyat ta'limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi"- degan buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonning shiddat bilan o'sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy-siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo'lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta'minlab bergen ko'plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkamagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o'rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi. Jumladan, 2019 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF- 5618- sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida» gi farmoni qabul qilindi.

"Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi farmonni qabul qilish zarurati:

- Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lismi va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti;
- Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlari hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.
- Aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanimayapti.

Mazkur farmonga muvofiq "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi" ishlab chiqildi. **Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari** - aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, o'z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat.

Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari.

1. Shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish.
2. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targibotning innovatsion usullarini joriy qilish.
3. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish.
4. Yuridik ta'limi, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish.
5. Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish.

Konsepsiyaning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar: - fuqaro, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, shaxsiy ehtiyojlar hamda jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatning shaklanishini ta'minlash;

bolalar va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarni va odob-axloq qoidalarini tizimli singdirib borish, huquqiy ta'lismi-tarbiyani uzviy va tizimli olib borishga erishish;

- huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini yaratish va joriy etish, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;
- mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqga bo'lgan hurmat hissini kuchaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta'minlash.

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi” mazmun-mohiyatini ta’lim muassasalarida o’rganish yuzasidan tavsiyalar:

- “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi” mazmun-mohiyati bilan barcha ta’lim muassasasi xodimlari, ota-onalar jamoasi va o’quvchilarni tanishtirish;
- Ta’lim muassasalari pedagogik jamoalari tomonidan barcha fanlar mazmuniga huquqiy savodxonlik kompetensiyasini singdirish, sinf va maktab ota-onalar majlislarida targ’ibot ishlarini amalga oshirish;
- Oilaviy notinchlik hamda bolalar nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish, bolalar orasidagi huquqbazarlik va jinoyatlarning salbiy oqibatlari to’g’risida videodarslar tayyorlash.
- Maktablarda “Huquqiy axborot kuni” loyihasini tashkil etish, bunda aniq bir kunda rejalashtirilgan yo’nalish bo’yicha malakali mutaxassislar (advokatlar, notariuslar, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqalar) tomonidan aholiga huquqiy tushuntirishlar berilishini ta’minlab borish - 8-11 sinf “Davlat va huquq asoslari” darsligidagi korrupsiya va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan mavzularni yoritilishini kengaytirib, huquqiy masalalarni barcha huquq darsliglarida qo’llash va o’quvchi yoshlarning bunday vaziyatlarda o’zlarining mustaqil fikrlarini shakllantirish.
- Ijtimoiy sohani rivojlantirishga oid belgilangan tadbirlar mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati bilan bog’liq ekanligini o’quvchi yoshlarga tushuntirish hamda maktablarda huquqiy madaniyatni targ’ib etuvchi radioeshittirishlarni muntazam olib borish; (Payshanba—“Huquqiy savodxonlik” kuni.)
 - umumta’lim maktablari boshlang’ich sinf o’quvchilari o’rtasida “Huquq - bu to’grilikdir” mavzusidagi rasmlar tanlovini tashkil qilish;
 - umumta’lim maktablari o’quvchilari o’rtasida “Mening huquq va majburiyatlarim” respublika ko’rik-tanlovini tashkil etish hamda tanlov g’oliblarini rag’batlantirish;

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda, ta’lim muassasalarida dars jarayonida o’quvchilarga huquqiy bilimlarni, faol fuqarolik pozitsiyasi normalarini quyidagicha singdirish mumkin:



3.Ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish (boshlang'ich sinflar, tarix, M.I.G' darslari misolida.)



1.Qadimgi dunyoda Inson huquqlari ("Avesto"da huquqiy munosabatlari)


"Avesto"ning asosiy maqsadi: har jihatdan va hamma munosabatlarda uyg'unlikka erishiladigan, uyushgan, gullab-yashnayotgan jamiyat barpo etish.

Agar o'g'ling bo'lsa , uni bolaligidanoq məktəbə ber, zotan,bilim ko'z nuridir." ,

Voyaga yetmagan bolalarni ota-onasidan olib ketib qolish, ularni vasiyliksiz qoldirish eng og'ir jinoyatdir.

Fozil hukmdor nafaqt qonunga amal qilishi, balki, shu bilan birga, zo'ravonlikka ham yo'l qo'ymasligi kerak.

**“Men bo’lajak uchuvchi” mashqi
(Samolyotlarni kerakli maydonchaga
qo’ndirish)**



Ona tilli va adabiyot fanlarida “Sinkveyn” usulida huquqiy savodxonlikka erishish:




**Prokuror
Ziyorat, qat'iyatlari
himoyalaydi, tergovqiladi, qoralaydi.
Qonuni himoyasida doimo sergak
Yurist**

Ona tili va adabiyot fanlarida “So'z o'yini” usulida huquqiy savodxonlikka erishish:




B	T	I	N	C	H	L	I	K	A	R	U	Q	M	O
U	K	R	I	L	M	B	U	R	C	H	N	R	N	D
D	T	Q	A	D	R	I	Y	A	T	A	F	I	D	A
U	I	F	Q	D	N	U	N	U	P	Z	I	A	D	T
M	L	R	U	S	Q	T	L	A	M	I	L	L	A	T

“Venn” halqalari



"IKKI QISMLI KUNDALIK"

<i>Huquqiy parcha</i>	<i>O'quvchi izohi</i>
<p><i>"Xalq qonunni o'z tayanchi, o'zini muhofaza qiluvchi devor sifatida bilmog'i lozim."</i></p>	



“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi”da ilgari surilgan yangiliklardan yana biri bu - “Street law” - (Ko'cha huquqi) oddiy huquq loyihasi hisoblanadi. **Street Law** – ingliz tilida (ko'cha huquqlari) yoshlarga shahar ko'chalarida ular duch keladigan har kungi huquqiy muammolarni yechimini o'rgatuvchi g'oya.

Street Law yo'nalishlari:

1. Demokratik, aqlii atrof-muhit
 2. Zamonaliv interaktiv metodikalar
 3. “Kundalik huquq”
- “Street law” loyihasini keng joriy qilish bo'yicha quyidagi tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish: - Huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta'lif muassasalari talabalari, yuridik kollejlar o'quvchilar, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko'ngillilar (volonter) guruhini shakllantirish;
- “Street law” loyihasi amalga oshirilishini metodik ta'minlash choralarini ishlab chiqish;
 - ko'ngillilar guruhlari uchun interaktiv mashgulotlar olib borish metodikasi bo'yicha treninglar o'tkazish;
 - ko'ngillilar tomonidan maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilari hamda umumta'lif makteblari o'quvchilar uchun mashgulotlar o'tkazish.
 - Huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta'lif muassasalari talabalari, yuridik kollejlar o'quvchilar, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko'ngillilar (volonter) guruhini shakllantirish;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, **“Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish - demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”**, Shunday ekan, qonun-larning samarali ishlashi uchun fuqarolarning huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini, huquqiy masifikurasini yuksaltirish juda muhim. Aholining barcha tabaqalari, ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilim saviyasini yuqori darajaga ko'tarish bilan biz qonun buzilishlari, adolatsizliklar, jinoyatlarning oldini olgan bo'lamiz. Zero, har bir fuqaro iqtisodiy va siyosiy islohotlar jadal o'tkazilayotgan hozirgi davrda qayerda ishlamasin, xizmat qilmasin, o'qimasin, har qadamda huquqiy bilimga ehtiyoj sezishi tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PF -5618 “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida” gi Prezident farmoni
2. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi”

3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” 2017 yil 3 yanvar, O'RQ-419-soni
4. “Inson huquqlari” o'quv-uslubiy qo'llanma
5. <http://eduportal.uz>
6. [http:// Ziyo.net](http://Ziyo.net)
7. [http:// Lex.uz](http://Lex.uz).

95	MASOFAVIY TA'LIM – XXI ASR TA'LIMI". ERGASHEVA GULNORA OLTIBOY QIZI	397
96	O'NLI SANOQ SISTEMASIDA KO'P XONALI SONLARNI KO'PAYTIRISH.HAMRAYEVA NORGUL	400
97	MEHRIBONLIK UYI BOLALARINI JTIMOIY MOSLASHUVINING AHAMIYATI HAYDAROVA SHAHLO NARZULLAYEVNA	406
98	YOSHLEARNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH. QURANBOYEVA SHOXSANAM SHUXRAT QIZI	410
99	ILM-FAN RIVOJLANISHI TARIXIDA IBN SINONING TUTGAN O'RNI.BOZOROVA DILSO'Z ILHOMOVNA	415

«TA'LIM FIDOVYLARI» ilmiy-uslubiy jurnalni

100	HOW TO TEACH STUDENTS TIME CLAUSES IN EASY WAYS. IBRAGIMOVA DILOROM ABDURAKHMANOVA	418
101	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY TUYG'ULARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI .IBRAGIMOVA N.M.	426
102	UMUMTA'LIM FANLARI TARKIBIDA O'QUVCHI YOSHLARDA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASI NORMALARINI SHAKLLANTIRISH BABAYEVA VASILA TOSHPULATOVNA BABAYEVA LOLA TASHPULATOVNA BOBOYEV XURSHID MANSUROVICH	429
103	WORD-FORMATION IN ENGLISH NASIMOV FARRUX FERUZOVICH	438
104	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISHNI O'RGATISH ALMATOVA KAMOLA SHOYIMNAZAROVNA	444
105	CHET TIL O'QITISHNING BOSHLANG'ICH BOSQICHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI PIRMATOVA SAODATXON TOLIBOVNA	448
106	INNOVATIONS IN EDUCATION. KHASANOVA M.KASIMOVA U.R.	452
107	IQTIDORLI O'QUVCHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISH XALIMOVA XOLISO SOLIJON QIZI.RUSTAMOVA XURSHIDA YUSUPOVNA	459
108	O'ZBEKISTONDA RAQOBATBARDOSH IQTISODIYOT SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI YUSUPOV XAKIMBOY RO'ZIMOVICH	462
109	BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI KREATIV FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI ISAYEVA NARGIZA TUYCHIYEVNA	466
110	ISHLAB CHIQARISH IMKONIYATLARI CHIZIG'I.OXUNJON QULLIYEV ANVAR O'G'LI	470
111	ISIRIQ MO'JIZASI.QOILOVA YULDUZ ASKAROVNA	473
112	TURIZMGA OID REKLAMALAR MATNLARIDA LEKSIK XUSUSIYATLARNING O'RNI IZZATILLAYEV A'ZAMJON AKRAMJON O'G'LI	477
113	TASHKILOTLARDA KADRARNI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH STRATEGIYASI JALOLOVA DILDORA JAMALOVNA	481
114	SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYANING ROLI ABDURAYIMOV FERUZ HAKIMOVICH	485
115	JISMONIY HARAKAT – SOG'LOMLIK GAROVI.IBRAGIMOVA HALIMA RAHIMJON QIZI	489
116	DASTLABKI O'RGATISH BOSQICHIDA 10-13 YOSHLI VOLLEYBOLCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR SALIMOVA MARG'UBA NE'MATOVNA	493
117	O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR SPORTINING BIR QANCHI TURLARINI RIVOJLANTIRISH VA TA'LIM TIZIMIDA QO'llASHNING USULLARI.XASANOVA SHAXLO TO'QSONOVNA	497
118	SAVOD O'RGATISH DAVRIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI. JO'RAQULOVA INOBAT HAMDAMOVNA	504
119	BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING QO'llANILISHI JO'RAYEVA UMIDA JABBAROVNA	506

«TA'LIM FIDOVYLARI» ilmiy-uslubiy jurnalni

120	O'QUVCHILARDA KIMYO FANIDAN MASALALAR YECHISHDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH QOCHQOROVA DILFUZA OKTAM QIZI	510
121	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMETIKA DARSINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.DAKIBAEVA KAMOLA TAIROVNA	514